



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-sentabr 2021
Ma'qullandi: 25-sentabr 2021
Chop etildi: 30-sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Aqlli shartnomaning, Xorijiy adabiyotlarda, Kriptavalutalar

Aqlli shartnomalarning bozor hajmining o'sishiga turtki beradigan asosiy omillar ta'minot zanjiri, bank sohasi, hukumat, sug'urta va ko'chmas mulk kabi sohalarda turli xil dasturlarni qabul qilishni kuchaytirishdir. Bundan tashqari, Blockchain texnologiyasining tobora ommalashib borayotgani, smart-shartnomalar bozoriga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda [1].

Aqlli shartnomaning dastlabki g'oyasi AQShlik informatika, kriptografiya va huquq bo'yicha mutaxassis Nika Sabo tomonidan 1990-yillarda ilgari surildi. U mazkur shartnomani: "Tomonlar o'rtasidagi majburiyatlarning raqamli vakili, shu jumladan ushbu majburiyatlarni bajarish uchun protokol", - deb ta'riflaydi [2]. Sodda qilib aqlli shartnomalarga ta'rif beradigan bo'lsak, shartnoma subyektlari majburiyatlari bajarilishini avtomatik tarzda amalga oshirilishiga yordam beradigan kelishuv desak hatto bo'lmas.

INVESTITSIYAVIY SHARTNOMALAR DOIRASIDA AQLLI SHARTNOMALARNING O'RNI

Normirzayev Ilyosbek Ilhomjon o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Biznes huquqi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5548215>

ANNOTATSIYA

Aqlli shartnomalar haqida fikr yuritar ekanmiz, hozirgi kunda ularning ko'lami oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Statistika ma'lumotlariga ko'ra dunyo miqyosidagi aqlli shartnomalar bozorining hajmi 2026-yilga kelib 2019-yildagi 106.7 AQSh dollaridan 345.4 million AQSh dollariga yetishi kutilmoqda.

Xorijiy adabiyotlarda investitsiyaning tasniflanishi ilmiy va amaliy jihatdan alohida qiziqish uyg'otadi. Masalan, nemis professori Vaynrixom investitsiyalarni yo'naltirish obyektlariga ko'ra quyidagicha tasniflashni taklif etadi: ko'chmas mulkka investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar, nomoddiy investitsiyalar.

Investitsiyaviy mulkiy munosabatlarda shartnomalarni bajarish nuqtai nazaridan smart-shartnomalarni boshqarishda – raqamli aktivlar, shu jumladan kriptovalyutalar va tokenlar (Bitcoin, Link, ETN, XRP, va boshqalar) bilan bog'liq o'tkazish operatsiyalarini, egalik qilish operatsiyalarini nazarda tutadi[3]. Shu o'rinda kriptavalutalar va tokenlar nima o'zi degan savol tug'iladi. Kriptavalutalar -bu markazlashmagan raqamli valuta hisoblanib, uni ishlab chiqarish jarayonida davlatning markaziy bankini ishtiroki bo'lmaydi. Bu esa davlatlar markaziy banklarining pul muomalasini nazorat qilish



va erkin monetar siyosat yuritish imkoniyatlarini chegaralaydi. Hamda oddiy valutadan yana bir farqi shundaki u deflyatsion hususiyatga ega ekanligi va ma'lum kunlar kelib uni ishlab chiqarishni imkoni bo'lmay qolish ehtimoli bor. Shu sababli ham bugungi kunda kriptavalutaning narxlarini o'sish tendensiyalarini kuzatmoqdamiz. "Tokenlar" ham bu - kriptavalutaning bir turi hisoblanib, kripto-birja savdolarini amalga oshirish Qoidalariga ko'ra esa token bu raqamli dunyoda "qimmatli qog'ozlarning o'rnini bosuvchi" vazifasini bajaruvchi raqamli balansni ko'rsatish uchun mo'ljallangan, blokcheynda taqsimlangan registrda yozuv hisoblanuvchi hisob birligidir. Boshqa kriptavalutalar kabi tokenlar ham yuqori riskli valuta hisoblanadi. Aqlli shartnomalar asosida tuzilgan investitsiya shartnomalarda elektron tabiati ega ekanligi, dasturiy ta'minotni amalga oshirilishi, aniqlilik tabiatiga ega bo'lishiga qaramasdan, kriptavalutalardagi ayrim salbiy xususiyatlar, aqlli shartnomalar asosida investitsiya faoliyatini amalga oshirilishiga to'siq bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor (emitent) tomonidan chiqarilgan tokenlar moliyaviy xizmatlar va moliyaviy investitsiyalarga oid aqlli shartnomalarni bajarish - savdoni moliyalashtirish, birja bozori, kim oshdi savdosida ishtirok etishni nazarda tutadi. Mohiyat jihatdan qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar), yani moliyaviy aktivlarga joylashtirilgan kapital moliyaviy investitsiyalarni anglatadi. Aqlli investitsiya shartnomalarida moliyaviy aktivlar tokenlar ko'rinishida elekton muhitda namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, virtual va real dunyoni qanday ulash bugungi kunda smart - shartnomalar bilan ishlashda asosiy qiyinchiliklardan biridir.

Nomoddiy investitsiyalarga oid smart shartnomalarni barajarishda ham tokenlar orqali amalga oshiriladi, yani bu uchun nomoddiy aktivlar virtualmuhitga "o'tkazilgan" bo'lishi va virtual shaklda bo'lishi kerak. O'z navbatida, u token shaklida shartli qiymat o'lchov birligini hosil qiladi. Ushbu tokenlarni sotish orqali, startaplar o'z loyihalarini moliyalashtirish imkoniga ega bolishadi. Mutaxassis Savel'ev aqlli shartnomalarning o'z-o'zidan ijro etilish xususiyati aqlli shartnoma ijrosi jarayonida shartnoma tomonlarining yoki biron-bir uchinchi shaxsning aralashuvi talab etilmaydi degan fikrni ilgari suradi. Shunga qaramay aqlli shartnomalarning o'zini o'zi ijro etish xususiyati pul yuvish yoki bir davlatdan boshqa davlatga pul olib o'tishning eng qulay yo'li bo'lish ehtimoli yuqori. Misol uchun nomoddiy ko'rinishdagi loyihalar insonlar va uning hayotini yengillashtirish uchun xizmat qilmasa yani turli g'ayri qonuniy ishlardan manfaatdor insonlarni manfaati uchun ishlatilsa, tokenlar eng qulay moliyalash elementi bo'lib qolishi mumkin.

Aqlli shartnomalar va kriptavalutalarning yuqorida keltirilgan xususiyatlaridan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, investitsiya sohasidagi aqlli shartnomalarni joriy qilish ko'plab islohatlarni talab etadi. Bunga sabab sifatida bir qancha omillarni ko'rsatishimiz mumkin:

Birinchi, investitsiyaviy aqlli shartnomalar bevosita kriptovalutalar bilan bo'g'liq holda amalga oshirilishi, kriptavalutalardagi ayrim salbiy xususiyatlarini investitsiya faoliyatiga ham parallel ko'chirish ehtimoli bor ekanligi, investitsiya sohasiga jiddiy havf solishi mumkin. Shu sababli investitsiya sohasida investorlar tomonidan chiqarilgan tokenlar reestrini yuritish va uning qonuniy asosini



yaratish ushbu muammoni yechishning amaliy yo'llaridan biri bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, har bir startaplarning lohiyalarini token shaklida chiqarish va uni moliyalashtirish chora-tadbirlarini ma'sul davlat organlari nazoratini ostida amalga oshirish turli ehtimoliy xatarlarni oldini olishga hizmat qilishi mumkin.

Uchinchidan, qonunchiligimizda aqli shartnomalarni qanday tartibda tuzilishi hamda unga doir qonun va qonun osti hujjatlarning yoq ekanligi, investitsiyaviy aqli shartnomalar asosida investitsiya foaliyatini amalga oshirish tartibini belgilash orqali ushbu masala yechim topishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Наградская В. Б. Новые технологии (блокчейн / искусственный интеллект) на службе права: научно-методическое пособие / под ред. Л. А. Новоселовой. М.: Проспект, 2019 // URL:<https://library.geotar.ru/book/ISBN9785392291656.html>.
2. Bitcoin is not just digital currency. It's Napster for finance. Fortune (21 января 2014). Дата обращения 19 ноября 2018.
3. "Blokchain texnologiyasiga asoslangan "Smart - shartnomalar": ishonchliligi va amaliyotda qo'llanishi" A.M.Ortiqboyev, O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi "UNICON.UZ" DUK - Fan- texnika va Marketing tadqiqotlari markazi.